

## BADIIY ASARLAR ORQALI BOLALAR TAFAKKURNING RIVOJLANISHI

*Kamolova Azimaxon Odiljon qizi*

*Namangan davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va  
tarixi kafedrasi o'qituvchisi*

*Sattibekmirzayeva Nozima Zuhridin qizi*

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Kalit so'zlar:** Badiiy asar, ong, shaxs, sofdillik, tafakkur, borliq aks etish, sezgi, konvergent fiklsh, ichki kechinmalar, voqea hodisalar.

**Keywords:** Work of art, mind, personality, integrity, thinking, reflection of being, intuition, convergent thinking, inner experiences, events

**Annotatsiya:** Asarlarda juda ko'p biz ibrat oladigan obrazlar, lavhalar ishtirok etgan. Hattoki, hayot yo'llarida mashaqqatlar va sinovlar insonni har jixatdan takomillashtirishga rivojlantirishga sabab bo'ladi. Buni oddiy cho'pon badiiy obrazida chopon bo'lish buyuk mansabdan ustunroq ekanligi o'z isbotini topgan. Asardagi psixologik qarashlar juda ko'p foydalanilgan. Bu fikrlar oddiy cho'pondan chiqishi esa juda hayratlanarli. Katta yoshdagi hayot tajribasiga ega insonlarda yoki ko'p kitobmutola qiladigan va o'qiydigan yoshlar uchun bu jumalarda keltirilgan fikrlarni anglash muammo emas. Taffakuri rivojlangan nson dunyoga realroq qaray boshlayd ,chunki uning bosqichlari, tendensiyalari , usullari turli ko'rinishga ega

**Annotation:** There are a lot of images and pictures that we can learn from in the works. Even hardships and trials on the way of life lead to the development of a person to improve in all aspects. In the artistic image of an ordinary shepherd, it is proved that being a shepherd is better than a great job. Psychological views are used a lot in the work. It is surprising that these thoughts come from a simple shepherd. It is not a problem for people with older life experience or young people who read and read a lot to understand the ideas presented in these sentences. A person with developed thinking begins to look at the world more realistically, because its stages, trends, and methods have different appearances.

Badiiy asarlar insonning ichki kechinmalarini aks ettirish qudratiga ega bo'lgan manba hisoblanadi. Badiiy asarlarda ro'y bergan voqea-hodisalar shaxsga bevosita ta'sir qilibgina qolmay, o'z ta'sir doirasiga qamrab oladi. Shaxs bu doiradan chiqishida o'zi uchun yangi qirralarni kashf etadi. Ong-u shuurla anglashilib borayotgan chalkash fikrlar bolalar- kattalarni birdek o'ylashga majbur qiladi. Asar doirasida kirib qolgan shaxs uni o'z hayotiga olib kirishga harakat qiladi. Ayniqsa, badiiy asarlar kichik yoshdagi bolalarda katta ta'sir qoldiradi. Katta yoshdagi shaxslarda bu unchalik

sezilmasligi aniq, chunki ular xayol holatidan reallik holatiga o'tib bo'lishgan. Badiiy asarlar hozirgi kunda eng dolzarb asarlar sirasiga kiradi. Bugungi kun yoshlari kitoblarni o'qishda o'zlarini yangi qirralarini ochishmoqda. Jumladan, chetdan kirib kelayotgan turk, rus, ingliz badiiy asarlari bizning yoshlar qalbidan chuqur joy egalamoqda. Turk badiiy asarlari O'zbekistonda eng kassabop asarlar qatorida hisoblanadi. Sababi, u boshqa asarlardan farqli o'laroq psixologik jihat insonlar qalbini qamrab olgani, insonning ichki kechinmalarini jumbushga keltirishi, eng dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi, sevgi, nafrat, sofdillik, insonga xos barcha hislatlar namoyon bo'lishi siz-u bizni aqlimizni o'g'irlab qo'ymoqda. Bulardan ham eng asosiysi, dinni ular bilan uyg'unlashishi ularning eng katta yutug'i deb hisoblayman. Din insonni o'ng yoki chapga, yaxshi yoki yomon yo'larni tanlashga o'rgatadigan va tanlovda adashmasliklari uchun insonlarda psixik qobiliyatlarini rivojlantiradigan insonga o'xshatsa bo'adi.

Meni qalbidan joy olgan kitoblardan biri Amina Shenliko'g'lining 'Yolvoraman, xiyonat qilma. Bilaman, bu kitobni esh tib, beixtiyor hayolingizga sevgi, muhabbat kelgan. Aslida esa shundaymi? Bu kitob sevgi haqidami? Insonning yoriga yokida mashuqaga bo'lgan muhabbati aks ettirilganmi?

Yo'q, aslo unday emas !!!

Bu kitobni o'qigan yoki o'qimaganlar bor. O'qiganlar, men nima haqida fikr yuritayotganimni bilishadi va tushunib olishdi. Hali o'qishga ulgurmagan kitobxonlar uchun qisqacha asosiy tomonlarini bayon qilishga harakat qilib ko'ramiz.

“Yolvoraman, xiyonat qilma!” bu nomni qo'yilishidan asosiy maqsad insonni insonga xiyonati emas balki insonni o'ziga bo'lgan xiyonati aks ettirilgan.

Mualif asar qaxxramonlarining kechinmalari orqali nima demoqchi!, asar qahramoni shaharlik, zamonaviy bir qiz haqida gap boradi. U qishloqqa ko'rgazmaga rasm chizish uchun keladi. Lekin u bu yerga kelib o'ziga do'stlar orttiradi, o'zligini anglab yetadi. U shuncha vaqt umrini zoe ketganiga achinadi. Atrofidagi insonlar hatto ota-onasi ham unga to'g'ri yo'l ko'rsatmaganiga afsuslanadi. U shunday ikki o't orasida qolib ketadiki!? Din, yoki ota-onasi, shaharlik olifta doistlarini tanlashga to'g'ri keladi.

Shu asnoda, uning dugonasi, avvalo, o'zligingga, keyin esa diningga xiyonat qilmasligini uqtiradi. So'nggida esa u qafas ichidagi bir qush misoll bo'lib qoladi. Yevropada insonlarning qadr qimmatini hayvondan ham past ekanligini, insonlarga yo'q sharoitlarning mavjudligidan hayratlanadi. Bu bilan u yanada kuchli bo'lishga harakat qiladi. Lekin so'ngida esa u haqiqiy baxtiyor hayotiga qaytmoqchi bo'lganda, yo'lda avtoholokatga uchrab vafot etadi. Lekin u o'zligiga, diniga sodiq qoladi.

Asarda juda ko'p biz ibrat oladigan obrazlar, lavhalar ishtirok etgan. Hattoki, hayot yo'llarida mashaqqatlar va sinovlar insonni har jixatdan takomillashtirishga rivojlantirishga sabab bo'ladi. Buni oddiy cho'pon badiiy obrazida chopon bo'lish buyuk mansabdan ustunroq ekanligi o'z isbotini topgan. Asardagi psixologik qarashlar

juda ko'p foydalanilgan. Bu fikrlar oddiy cho'pondan chiqishi esa juda hayratlanarli. Masalan:

Inson bu dunyoga tanho kelib, tanho ketar,  
Yo bol bilan to'lar, yo bo'm-bo'sh bo'lib ketar.  
Kim Haqqa qul bo'lar, kim shaytonga yo'ldosh,  
Kimga gul va chechak, kimga kaltak yetar.(1

Bu ma'no jihatdan chuqur o'yga toldiradigan jumla. Katta yoshdagi hayot tajribasiga ega insonlarda yoki ko'p kitobmutola qiladigan va o'qiydigan yoshlar uchun bu jumalalarda keltirilgan fikrlarni anglash muammo emas. Tafakkuri rivojlangan inson dunyoga realroq qaray boshlaydi, chunki uning bosqichlari, tendensiyalari, usullari turli ko'rinishga ega. Shu tufayli tafakkurni ko'rib chiqaylik. Chunki bugungi kunda jadal ravishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, insoniyatning bugungi kundagi ong va tafakkur jarayonlari rivojlanishi yil sayin ortib bormoqda. Cheksiz va tezroq ravishda tarqalayotgan axborotlar oqimi shaxsning tabiat, jamiyat to'g'risidagi fikrlarini aqalga sig'dirib boilmaydigan darajadagi qisqa muddatda o'zgartirib yubormoqda. Bu esa o'z-o'zidan insonga ruhiy, ma'naviy va aqliy jihatdan o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Tafakkur ham ruhiy jarayon bo'lib, uning shakllanishi ham bir necha bosqichlarni o'zida mujassam etadi. "Tafakkur"- (arabcha-"o'ylash", "fikr yuritish") - obyektiv borliqning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati tushuniladi. (1. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, obyektiv borliqning ongda aks ettirish jarayonidir. Tafakkur atrof- muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. Iltimos sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganida, voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi \_ Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistema arining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosa ar shaklida hisoblanadi. Tafakkur jarayonlari mana shu davrgacha juda ko'p olimlar, psixologlar tomonidan o'rganilib, ular tomonidan ko'plab nazariyalar yaratilgan. Masalan, A.V.Petrovskiy tafakkurga quyidagicha ta'rif beradi: "Tafakkur - ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik g'oyasi va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".[1].

Tafakkur ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'langan holatda asosiy yangilikni qidirish va ochishdan iborat bo'lgan, voqelikni analiz va sintez qilish, uni bevosita va umumlashtirib aks ettiruvchi aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayondir.

Ana endi tafakkur haqida malumot bilib olgan bo'lsak, asarlarda uning o'rnini haqida fikr yuritsak\_ asarlardagi qisqacha mulohazalar, fikrlar mantiqiy savol yoki testlar tafakkurning operatsiyalari bilan bog'liq. Oddiygina konvergent tafakkurga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar: tezlik, aniqlik va mantiq. Konvergent fikrlashda testlar bizning bilimlarimizni va bilimlarni oddiy va mantiqiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatimizni baholaydi. Ko'p asarlar xayolni rivojlantirsa ayrim asarlar tafakkurni ham rivojlantiradi. Ular falsafiy, ilmiy asarlardir. Ulardagi g'oyalar oddiy javob talab qilmasdan, murakkab, chigal vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlab topish imkonini beradi\_ ularda ichki fikrlash kondensatsiya borgan sari ortib boradi. Hattok buyuk olimlarning tafakkurini rivoj anishi ham asarlar orqali amalga oshirilgan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyudagi xullosaga kelish mumkin demak kitobxonlik aqlni charxlash bilan birgalikda taffakurni ham rivojlantirib kelajak hayot yo'limizni ham belgilab beradi. Prezidentimiz tomonidan ham kitobxonlikka berilgan imkoniyatlar va sharoitlar yaqqol misol bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi- inson manfaatlarini taminlash taraqqiyot va xalq faravonligining garovi. “O'zbekiston”, 2017.
3. Amina Shekxio'g'lu “Yolvoraman hiyonat qilma ” 2021
4. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; "O'qituvchi" 1992 y
5. Xaydarov F.I. Jo'raev N.S. Stress yoki ruhiy muvozanatni saqlash osonmi? T2003 y
6. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
7. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar Pedagogik psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. -410 b
8. Kamolova A.O “the role of game technologyin the formation of organizational qualities general secondary school students. Eurasian journal of academic research. Volume 1 , Issue 01. ISSN 2181-2020 15 April 2021. 154-156 betlar